O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING BUXORO
VILOYATI BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-06, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Xayitov Bekzod Razzokovich
Sana: 24-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

259290 - SONLI

Obyekt nomi: Peshko’ tuman Yangibozor MFY hududida “ORIFJON DAMIRBEK SAVDO" MChJga "1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko’rsatish hamda yuqori qavatlarida ko’p qavatli turar joy" binolari qurilishi	
Buyurtmachi:	ORIFJON DAMIRBEK SAVDO MCHJ
Bosh loyihachi:	"LOYIXASUV QURILISH" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tanlovi asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	088124

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 Peshku tuman qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 2025 yil 03 iyundagi 195687884-sonli ruxsatnomasi; Davlat kadastrlar palatasi Buxoro viloyat boshqarmasining 2025 yil 28 apreldagi Ko’chmas mulk ob’yektiga bo’lgan huquqlarni davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risidagi 1706240/Y-25005261-sonli davlat reestridan ko’chirmasi; Buxoro viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi huzuridagi arxitekturashaharsozlik kengashining 2025-yil 23-maydagi 41-sonli yig’ilish bayonnomasi.

1.2 Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Yagona Interaktiv Davlat xizmatlari portali orqali 2025-06-17da 1706-1706240-228406-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig’i.

1.3 O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan 2021-yil 12 yanvarda AL-001588 sonli muhandis-geologiya qidiruvlarni bajarishga «MAXSUS YaGONA LOYIXA» MChJga berilgan litsenziya.

1.4 Buyurtmachi ORIFJON DAMIRBEK SAVDO MChJ hamda «LOYIHASUV QURILISh» MChJ o’rtasidagi 2025 yil 27 avgustdagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

1.5 Loyiha topshirig’i buyurtmachi «ORIFJON DAMIRBEK SAVDO MChJ tomonidan tasdiqlangan hamda “LOYIHASUV QURILISh” MChJ direktori bilan kelishilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Albom. Bosh reja.

2.2 Albom. Arxitektura qurilish bo’limlari, Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta’minlaydigan yechimlar (NBSh).

2.3 Albom. Ichki elektr ta’minoti, Ichki suv va oqova suv ta’minoti, ichki issiqlik tizimi, yong’indan ogohlantirish bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.4 Muhandislik-geologik xulosa.

2.5 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“1-QAVATIDA SAVDO, VA MAISHIY XIZMAT KO’RSATISH HAMDA YUQORI QAVATLARIDA KO’P XONADONLI TURAR-JOY" BINOLARI	7	770.0	4949.79	1978.90	63
Jami:			**770**	**4949.79**	**1978.9**	**63**

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari. Loyihalangan bino va inshootlarning asosini MGH №2.

Supes qatlamlar, kulrangli, qattiqdan oquvchan konsistentsiyagacha, kam quvvatli oquvchan qum zarralaridan tashkil topgan — mexanik xossalari γ1=1.91kN/m3, S=5.7KPa, φ=28.5°. Elementlarning qalinligi 1,0-3,75 m gacha. Tuproqlarning uglerodli po’latga nisbatan korroziyali agressivligi o’rta. Yer osti suvlarinig maksimal balandligi 1,45-2,30 m mavjud yer sathidan. MGH №1 qatlam cho’kuvchanlik turi birinchi tur. Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi 0,57 m. Qurilish maydonining zilzilabardoshliligi 7 ball. Tuproqlarning zilzilabardoshlilik toifasi uchinchi hisoblanadi. Qurilish maydonining taxminiy zilzilabardoshliligi 8 ballni tashkil etadi.

3.2 Texnologik yechimlar ShNQ 2.08.01-24 "Turarjoy binolari" va ShNQ 2.08.02-23 «Jamoat binolari va inshootlari», talablarini loyihalash bo’yicha tasdiqlangan topshirig’iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilindi va Buyurtmachi bilan kelishilgan.

3.3 Hudud. «1-qavatida Savdo, va maishiy xizmat ko’rsatish hamda yuqori qavatlarida ko’p xonadonli turar-joy» binolari sifatida rekonstruktsiya qilinib qayta qurilishi loyihalashtiriladigan mavjud ma’muriy bino-inshootlarga tegishli umumiy maydoni 4233.0 kv.metr dan iborat yer uchastkasi Peshku tuman «Yangibozor» MFY hududida joylashgan. Ob’ yekt joylashuvi loyiha kelishuvi asosida.

3.4 Bosh reja. Ob’yektning umumiy bosh rejasi amaldagi me’yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relef hududdan yomg’ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug’orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi.

Hududni obodonlashtirish loyihasi, transport aloqasi qulayligi va o’t o’chirish mashinalarining binolarga kirishi uchun qattiq sirtli yo’llar va maydonlarni joylashtirish sharti bilan ishlab chiqilgan. Qurilishi loyihalashtiriladigan ob’ektning yer maydoni quyidagicha: Shimol tomondan —mavjud bino hamda egalikdagi yer bilan; Janub tomondan — avtomobillar yo’li himoya hududi bilan; Sharq tomondan — avtomobillar yo’li himoya hududi bilan; G’arb tomondan —bog’ hududi bilan chegaralangan; Loyiha ko’p bosqichli ishlab chiqilgan bo’lib, ushbu ob’yekt bosh reja asosida uchinchi bosqichda bajarilishi ko’zda tutilgan. Loyihada

quyidagilar rejalashtirilgan: yetti qavatli birinchi qavati savdo maishiy yuqori qavati turar joy binosi qurish, avtoturargohlar, bollar maydonchlari, qozonxona, oqava suvlar uchun xandaq, transformator, aloqa qutisi, yong'inga qarshi qalqon, o't o'chirish gidranti o'rnatish rejalashtirilgan Shuningdek Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan 2025-07-15 dagi 203033256-sonli ijobiy xulosa berilgan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar.

Umumiy chegaraviy maydoni – 4233.0m^2

Qurilish maydoni – 770.0 m^2

Obodonlashtirish maydoni (yo'l va yo'lak) –1740.0 m^2

Obodonlashtirish maydoni (yashil maydonlar) –550.0 m^2

3.5 Loyihada quyidagilar ta'minlanadi: 7 qavatli ikki yo'lakli yerto'lali umumiy o'lchami 49.6x15.0m. Birinchi savdo maishiy do'konlar va turar joylar, yuqori qavatlarda turar joy qilib rejalashtirilgan. Yerto'la balandligi 2.8m, birinchi qavat balandligi 3.m yuqori qavat balandligi 3.0m dan iborat. Yerto'la qismida noturar maydon omborxonalar, zina katagi, lift shaxtasi joylashtirilgan.

Biirnchi qavatda savdo do'konlar uchun maydon, zina katagi, lift shaxtasi, yo'lak, 1 xonali xonadon (1 dona), 2 xonali xonadon (2 dona) joylashtirilgan.

Ikkinchi va yettinchi qavtalarda har bir qavatda zina katagi, lift shaxtasi, yo'lak, 1 xonali xonadon (1 dona), 2 xonali xonadon (4 dona) joylashtirilgan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlari:

Umumiy xonadonlar maydoni – 3707.59 m^2

Noturar maydonlar (Savdo do'konlar) – 534.70 m^2

Yerto'la maydoni – 707.50 m^2

Qurilish hajmi – 1978.90 m^3

Qurilish maydoni – 770.0 m^2

Umumiy foydali maydoni – 4233.0 m^2

Jami 63 ta xonadondan iborat.

Arxitektura va qurilish yechimlari:

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penopolistirol izolyatsiya, «Keramik plitka» qoplamasi bilan qoplash.

Devorlar – fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan yaxshilangan gipsda devorlarni suvoqlash va «Travertin» dekorativ devor bezagi bilan qoplash karniz qismlarda febrobiton dekorativ elementlardan tashkil topgan.

Konstruktiv yechimlar:

Seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton Rama diagfragmali yechim. Binoning fazoviy qat'iyligi rama diagfragma va monolit temir-beton orayopma bilan ta'minlanadi QMQ 2.01.03-2019, 3.1- jadval 1.2.2 b) bo'lim asos.

Poydevorlar – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton poydevor plita.

B25 sinfidagi betondan yasalgan monolitik temir-beton devorlar va ustunlar.

Diagfragma (monolit devorlar) – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Rama (Ustunlar va to'sinlar) – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Devorlari – GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan, B12.5 monolitik temir-beton serdechniklar o'rnatilgan.

Devorlari – 200mm qalinlikda gazablok D600Kg/m3 bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Pardevorlar – GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan, metal burchaklar bilan kuchyatirilgan.

Tom yopma va orayopma – monolitik temir-beton kamar va uchastkalari qurilmasi bilan zavodda ishlab chiqilgan temirbeton ko'p bo'shliqli plitalardan qoplanadi.

Tom qoplamasi – yog’och konstruktsiya ustida polimer qatlamli profnastil bilan qoplash ko’zda tutilgan.

Zinapoyalar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan va bilan zavodda ishlab chiqilgan temirbeton.

Lift shaxtalari – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton asosga metal profilli

Ustunlar, to’sinlar, bog’lovchilardan iborat va sendvich panel qoplangan.

Buyurtmachining loyiha topshirig’iga va 2025-yildagi tasdiqlangan xatiga asosan 7 qavatli turar-joy binolari qurilishi ob’ekti loyihasi «Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo’shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so’z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo’lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.

Eshik romlari — metal va MDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlari tashkil topgan ichki mdf romlari smeta hisobiga hisobga olinmagan.

Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar rejalashtirilgan smeta qismida pol qoplama yuzlari hisobga olinmagan.

Deraza romlari – ikki qavat oynalar bilan qoplangan metall-plastmassa profillardan, PVX deraza tokchalari pvxdan.

Ichki pardozlash – devorlarni yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emultsiya bilan bo’yash shift choklarini to’ldirish va suvli bo’yoq bilan bo’yash rejalashtirilgan pardozlash ishlari smeta hisobiga hisobga olinmagan.

Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gruntni bostirish, 1200 mm shag’al qatlam yoyish va ustidan 70mm asfalta beton qatlam bilan qoplash, poydevor devorlari yon sirtlari ikki marta 3mm TPP polizol qatlam yopishtirish ko’zda tutilgan . Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo’yicha Portland sementida normal o’tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.

3.6 Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta’minlaydigan yechimlar.

Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18 iyuldagi «Nogironligi bo’lgan shaxslarga qulay va to’siqlarsiz muhit yaratish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o’rnatish, zaif ko’ruvchilar uchun yo’laklarda va eshik atrofida kontrast ranglar bilan ajratilgan va eshiklarni ostonasiz o’rnatish, tatkil qoplam o’rnatish 1-qavat ga chiqish uchun qo’shimcha ko’tarma qurilmasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

3.7. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

– devorda termoizolyatsiyasi zichligi γ=125kg/m3,qalinligi 80 mm bo’lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);

– tomyopma termoizolyatsiyasi zichligi γ=140kg/m3,qalinligi 150 mm bo’lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);

– Tomda quyosh panellari va quyosh suv isitish bolleri o’rnatish ko’zda tutilgan.

– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar.

– Yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Buyurtmachining loyiha topshirig’iga asosan 7 qavatli turar-joy binosini qurilishi ob’ekti loyihasi «Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo’shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so’z boshiga

keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo'lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan. Shuningdek muhandislik tarmog'i ya'ni tashqi suv va oqava suv tarmog'i, tashqi issiqlik ta'minoti, tashqi elektr ta'minoti loyihalash ishlari to'rtinchi bosqichda loyihasi ishlab chiqiladi va ijobiy ekspertiza xulosasi olinishi sharti bilan ijobiy xulosa berildi.

Ichki suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlari. Sovuq suv ta'minoti tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan ta'minlanadi shuningdek xonadonlarda zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Loyihada hisoblagichlarni, Nasoslar o'rnatish shuningdek nasos xonasida drenaj o'rnatish ko'zda tutilgan, barcha loyihada yong'in o'chirish tizimi uchun metal quvurlar, shlang nasoslar ko'zda tutilgan. GOST 18599-01 ga oqava suvlar uchun polietilen quvurlar, sanitar jihozlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Issiq suv taminoti tomda quyosh suv isitish bollerlari hamda elektr isitish qozonlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish QMQ 2.01.05-24 va QMQ 2.04.17-19 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o'rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o'chirib yoqgich, har bir xonada yorug'lik chiroqlar, rozetkalar, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo'ng'iroqlarni o'rnatish, elektr tokini yerga ulash ko'zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o'rnatish, aloqa tizimi va yong'indan ogohlantirish tizimlarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Ichki isitish tizimi – Bimetalik radiatorlar o'rnatish, quvurlar montaj qilish, quvurlar uchun qo'shimcha elementlar o'rnatish, metal g'ilof o'rnatish, moyli bo'yoq bilan bo'yash, bitum bilan korroziyadan himoyalash ishlari bajarish, shamollatgich o'rnatish, reshotkalar o'rnatish, mo'rilar o'rnatish, shamollatgich parraklar o'rnatish ko'zda tutilgan.

Yong'indan ogohlantirish va signal berish – signal qabul qiluvchi konnektor o'rnatish, boshqaruv bloklar o'rnatish, signal beruvchi jihozlar o'rnatish, qo'l bilan o'chirish uskunasi, tovush ko'targich jihozlari o'rnatish, yong'indan ogohlantirish jihozlar o'rnatish, elektr taqsimlovchi quti o'rnatish, yoritgichlar o'rnatish, rozetkalar o'rnatish, manitor o'rnatish, qo'shimcha jihozlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

Smeta hujjatlari. Ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "ShNQ" smeta resurs normalari to'plamlari bo'yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro'yxati, joriy narxlarda ob'ektning tavsiya etilgan narxini hisobkitobi. Ob'ektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o'rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan 17.06.2025 yildagi 8/1-sonli ma'lumotlarga asosan qabul qilindi. Tavakkalchlik koeffisienti qabul qilinmasin.

Yong'inga qarchi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong'inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog'och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to'xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo'llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo'llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta'minlangan. Binolar orasidagi yong'inga qarshi tanaffuslar sanitariya me'yorlarini hisobga olgan holda ta'minlanadi, o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi ta'minlanadi va o't o'chirish uchun gidrantlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha ko'rib chiqildi va tasdiqlandi: Buyurtmachining e'tirozlarisiz ish hajmlari qabul qilindi.

Loyiha Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi shaharsozlik kengashi yig’ilishi bayonnomasida ko’rib chiqildi.

Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ 161-sonli qarori bo’yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. (Buyurtmachining 2025 yildagi tasdiqlangan kafolat xati).

Davlat ekologik ekspertizasining 16.06.2025 yildagi 01-02/15-2944-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **18 197 801 903** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

273 608 918 so'mga oshirilib, **18 471 410 821** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **15 613 733 039** so'm

Asbob-uskunalar: **878 598 051** so'm

QQS: **1 979 079 731** so'm

Ushbu belgilangan narx, yakuniy qiymatni belgilash, to’lovlarni amalga oshirish va shartnoma tuzish uchun asos bo’lmaydi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha va smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Mazkur ob’ekt buyurtmachining o’z mablag’lari hisobiga qurilayotganligi sababli, smeta qismi qurilishning sifatsiz bajarilishiga yoki byudjet mablag’lariga zarar yetishiga olib kelmaydi.

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo’yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

Smeta hujjatlarida ko’rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo’yicha «Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi» DM Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o’z zimmasiga olmaydi.

- Poydevor qismi va loyihaviy yechimlar qayta ko’rib chiqildi.
- Smeta me’yorlari qabul qilingan loyihaviy qarorlarga muvofiqlashtirildi.
- Loyihaning qabul qilingan qarorlariga muvofiq ish hajmlari to’g’rilandi.
- Harakati cheklanagan va ko’zi ojizlar uchun qo’shimcha NBSh albomi ishlab taqdim qilindi.
- Shammolatish tiizmi to’liq ishlanilishi shart uzel vod va qozon joylashuvi qayta ko’rilishi shart.

-Loyiha yechimlarida konstruktiv yechim qayt ko’rib chiqldi konstruktiv yechim qurilish jarayonida o’zgartirilgan taqdirda berilgan ijobiy xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Buyurtmachi va loyihachi tashkilotiga o’rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha va loyiha oldi hujjatlariga o’zgartirish kiritish talabi qo’yilgan.

Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga lakal xulosalarida ko’rsatilgan sharhlar bo’yicha to’g’rilab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi. Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to’g’irlanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Ekspertizadan o’tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to’liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

Davlat ekspertizasi joriy narxlar katalogi tomonidan hisobga olinmagan qurilish materiallari, asbob-uskunalar narxlari uchun javobgar emas, tartibga solish funktsiyasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-tsentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga, 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilova, II-bob 8-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi”ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo’yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo’yicha) javobgar.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-tsentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo’yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **Peshko’ tuman Yangibozor MFY hududida “ORIFJON DAMIRBEK SAVDO" MChJga "1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko’rsatish hamda yuqori qavatlarida ko’p qavatli turar joy" binolari qurilishi** ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Muxammedov Timur Furkatovich, Pondina Natalya Rafikovna, Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich, Kashapova Nadiya Muxtarovna, Djurayev Muxammadjon Akobirovich